



**“OPEN BANK” AJda shaxsga doir ma'lumotlar yuzasidan
MAXFIYLIK SIYOSATI**

Ushbu Shaxsga doir ma'lumotlarni Maxfiylik siyosati (keyingi o'rinlarda "Siyosat" deb yuritiladi) "Open bank" AJning (keyingi o'rinlarda "Bank" deb yuritiladi) mobil ilovasi yoki veb-sahifasi orqali Bank to'lov xizmatlaridan foydalanish vaqtida foydalanuvchi haqida olishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarga, shuningdek, Bankning xizmatlarining boshqa turlariga nisbatan qo'llaniladi.

Ushbu siyosat faqat Bank tomonidan taklif qilingan xizmatlarga nisbatan qo'llaniladi va foydalanuvchi Bank xizmatlaridan foydalanish uchun kirish mumkin bo'lgan uchinchi tomon veb-sahifalari va ular tomonidan qayta ishlangan foydalanuvchi haqidagi ma'lumotlari nazorat qilmaydi hamda ularga javobgar bo'lmaydi.

Siyosatda keltirilmagan va foydalanilmagan barcha atamalar va ta'riflar boshqa shartnomalarda keltirilgan bo'lib, ularning mavzusi foydalanuvchiga Bank xizmatlarini ko'rsatish va undan foydalanish tartibi hisoblanadi.

Bank xizmatlaridan foydalanish foydalanuvchining ushbu Siyosatga va unda ko'rsatilgan shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash shartlariga so'zsiz roziligini bildiradi, agar ushbu shartlarga rozi bo'lmasa, foydalanuvchi Bank xizmatlaridan foydalanishdan voz kechishi kerak.

1. BANK TOMONIDAN QABUL QILINADIGAN VA QAYTA ISHLANADIGAN MIJOZ MA'LUMOTLARI

1.1 Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlari ushbu Siyosat doirasida quyidagilarni anglatadi:

1.1.1 Shaxsiy ma'lumotlar – foydalanuvchi Bankning istalgan xizmatlaridan foydalanish jarayonida ro'yxatdan o'tish uchun o'zi haqida mustaqil ravishda taqdim etadigan, shu jumladan, Bank o'rtasida har qanday shartnomalarni bajarish vaqtida taqdim qilingan foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlari. Foydalanuvchi Bankning ayrim xizmatlaridan o'zi tomonidan zarur ma'lumotlar taqdim etilgan taqdirdagina foydalanishi mumkin.

1.1.2. Foydalanuvchi qurilmasiga o'rnatilgan dasturiy ta'minot yordamida Bank xizmatlaridan foydalanish jarayonida avtomatik tarzda Bankka IP-manzil, cookies fayllardan ma'lumotlar, foydalanuvchi brauzeri haqida ma'lumotlar, kirish vaqti va so'ralgan sahifalarning manzillari yuboriladi.

1.1.2.1. Bank xizmatlaridan foydalanganda foydalanuvchi haqida quyidagi shaxsiylashtirilmagan anonim statistika ma'lumotlar avtomatik ravishda (cookies fayllardan) yig'iladi:

- Saytda amalga oshirilgan harakat turi;
- Harakatni amalga oshirish sanasi va vaqti;
- Sahifaning URL manzili;
- Yo'naltiruvchi;
- IP (statistikada IP manzillar bilan ishlash imkonsiz);
- Foydalanuvchi – Agent;
- Client ID (cookie bo'yicha brauzer identifikatori);
- Ekran o'lchamlari;

- Bosilayotgan HTML elementning sinfi;
- Qidiruv so'rovlari;
- To'lov bo'yicha barcha tafsilotlar, yoqilgan va o'chirilgan funksiyalar;
- Foydalanuvchining geolokatsiyasi;
- qurilmalar, model, ishlab chiqaruvchi va boshqalar haqida batafsil ma'lumotga ega xato hisobotlari;
- foydalanuvchining telefon aloqalari to'g'risidagi ma'lumotlar;
- Bank xizmatlari bilan interfeysda foydalanuvchi tomonidan ko'rilgan ma'lumotlar to'g'risidagi ma'lumotlar;
- bankning veb-sahifasi yoki mobil ilovasida arizalarni to'ldirish faktlari, shu jumladan ularni to'ldirishdagi xatolar to'g'risidagi ma'lumotlar.

1.1.2.2. Bank tomonidan taqdim etilgan har qanday xizmatdan foydalanishda, foydalanuvchi o'z xohishiga asosan Bank tomonidan statistik ma'lumotlari va sookies-fayllarni tizimlar tomonidan qayta ishlash uchun foydalanishi hamda tadqiqot ishlarni bajarish yoki Bank xizmatlarini ko'rsatish uchun uchinchi shaxsga topshirishi mumkinligiga rozi bo'ladi. Foydalanuvchi o'z qurilmasida ishlaydigan brauzer sozlamalarini o'zgartirish orqali sookies-fayllari bilan fayllarni mustaqil ravishda boshqarishi mumkin. Foydalanuvchi sozlamalaridagi o'zgarishlar sookies-fayllarni bloklanishiga sabab bo'ladi va buning natijasida Bankning to'lov xizmatining ayrim komponentlari mavjud bo'lmasligiga olib kelishi mumkin.

1.1.3. Foydalanuvchi uchinchi tomon resurslaridan (masalan, chatlar/shakl/ijtimoiy tarmoqlar) foydalanganda Bank hammaga ochiq ma'lumotlarni olishi mumkin. Ushbu ma'lumotlar foydalanuvchi e'lon qiladigan ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin. Bank bunday ma'lumotlardan mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash uchun foydalanadi.

1.1.4. Ushbu Siyosatga asosan Bank o'zining xizmatlaridan foydalangan holda qonun hujjatlari talablariga zid bo'lgan harakatlarni amalga oshirishga yordam beradigan holatlarni aniqlash va oldini olish uchun ma'lum ma'lumotlarni (masalan, IP-manzil, foydalanuvchi qurilmasi identifikatori) qayta ishlashi mumkin.

1.1.5. Bank o'zining kontragentlari yoki hamkorlaridan foydalanuvchi to'g'risidagi ma'lumotlarni olishi mumkin. Masalan, kontragent bilan shartnoma tuzayotganda kontragent bankka bunday foydalanuvchi va uning o'tkazmasi o'rtasida aloqa o'rnatish imkoniyatini beradigan ba'zi ma'lumotlarni topshirishi mumkin, shuningdek, komissiya to'g'risidagi ma'lumotlar bank tomonidan kontragentga uzatiladi.

1.1.6. Bank foydalanuvchining bank kartalaridan foydalangan holda amalga oshirgan onlayn to'lovlari xavfsizligini tegishli darajasini ta'minlash maqsadida ma'lumot olishi mumkin. Bunday ma'lumotlar ro'yxati 3.3.2.1 badda keltirilgan.

2. MIJOZLARNING SHAXSIY MA'LUMOTLARINI YIG'ISH VA QAYTA ISHLASH MAQSADLARI

2.1. Bank faqat bank xizmatlarini ko'rsatish yoki foydalanuvchi bilan tuzilgan shartnomalarni bajarish uchun zarur bo'lgan shaxsiy ma'lumotlarni to'playdi va saqlaydi ammo, qonun hujjatlarida ayrim shaxsiy

ma'lumotlarni majburiy olish va saqlash nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Shaxsiy ma'lumotlarni saqlash muddati O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida va ushbu siyosatda belgilanmagan bo'lsa, ularni qayta ishlash uchun belgilangan muddatdan ortiq bo'lmagan holda amalga oshiriladi.

2.2. Bank foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlaridan quyidagi maqsadlarda foydalanishi mumkin:

2.2.1. Bank hamda Bankning kontragentlari bilan tuzilgan shartnomalarni, shu jumladan foydalanuvchini soddalashtirilgan identifikasiya qilish maqsadida foydalanuvchiga Bankning barcha mavjud xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini taqdim etish;

2.2.2. Aloqa o'rnatish. Foydalanuvchi bilan aloqa qilish va Bank xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida bildirishnomalar, so'rovlar va ma'lumotlarni yuborish, shuningdek foydalanuvchining so'rovlarini qayta ishlash, shu jumladan bunday so'rovlarni bajarish uchun keyinchalik kontragentlarga o'tkazish;

2.2.3. Bank xizmatlari sifatini oshirish, ulardan foydalanish qulayligini oshirish, yangi Bank xizmatlarini ishlab chiqish, foydalanuvchiga shaxsiylashtirilgan Bank xizmatlarini taklif etish;

2.2.4. Anonim ma'lumotlar asosida statistik va boshqa tadqiqotlar o'tkazish;

2.2.5. Bank va kontragentlar tomonidan tashkil etilgan sovrinli aksiyalarda ishtirok etish takliflarini, shuningdek reklama va axborot materiallarini aloqa tarmoqlari orqali, jumladan telefon, faks, mobil telefon orqali mijozlar e'tiboriga yetkazish;

2.2.6. Bankning to'lov xizmatidan foydalangan holda qonun yoki shartnoma talablariga zid bo'lgan harakatlarni amalga oshirishga yordam beradigan holatlarni oldini olish.

3. FOYDALANUVCHINING SHAXSIY MA'LUMOTLARINI QAYTA ISHLASH VA UNI UCHINCHI SHAXSLARGA O'TKAZISH SHARTLARI

3.1. Bank mijozlarning shaxsiy ma'lumotlarini ushbu Siyosat va muayyan xizmatlarni ko'rsatish shartlariga hamda Bankning ichki qoidalariga muvofiq qayta ishlaydi.

3.2. Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlariga nisbatan uning maxfiyligi ta'minlanadi.

3.3. Bank quyidagi hollarda foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga o'tkazish huquqiga ega:

3.3.1. Foydalanuvchi bunday harakatlarga roziligini bildirganda;

3.3.2. Uchinchi shaxsga o'tkazish Bankning ma'lum bir xizmatidan yoki Bank sherigi xizmatidan foydalanish uchun va foydalanuvchining buyrug'ini bajarish uchun zarur bo'lganda. Asosan, shaxsiy ma'lumotlar quyidagi toifadagi uchinchi shaxslarga berilishi mumkin:

3.3.2.1. O'tkazmalarni amalga oshirishda ishtirok etuvchi kredit tashkilotlari va boshqa tashkilotlar. Masalan, bank kartalaridan foydalangan holda amalga oshirilgan onlayn to'lovlar xavfsizligining tegishli darajasini ta'minlash maqsadida Bank to'lov tizimlarining xavfsizlik protokollarida belgilangan ma'lumotlarni ekvayring/emitent banklar va to'lov tizimlariga o'tkazishi mumkin.

Ma'lumotlarni uzatish foydalanuvchining uskunasi haqidagi ma'lumotlar nuqtai nazaridan majburiy bo'lishi mumkin, ya'ni IP-manzili, operasion tizim, geografik ma'lumotlar, uskuna turi, foydalaniladigan

kanallar, brauzer, to'lovni avtorizasiya qilish, identifikasiya, shuningdek, manzillarni moslashtirish ko'rsatkichlari, provayder tizimidagi hisob haqidagi ma'lumotlar, elektron pochta manzili, mobil telefon raqami, to'lov miqdori, provayder tomonidan belgilangan xavf darajasi, to'lov tizimi haqidagi ma'lumotlarning qismlari.

3.3.2.2. Marketing bo'yicha hamkorlar va Bankning boshqa kontragentlari:

a) Bank marketing va boshqa tadqiqotlarni o'tkazish uchun ma'lum ma'lumotlarga (masalan, statistik ma'lumotlarga), shuningdek, foydalanuvchiga qiziqarli bo'lishi uchun uchinchi tomon tashkilotlariga reklama uzatish imkonini beradigan boshqa ma'lumotlarga kirishni ta'minlashi mumkin;

b) Bank foydalanuvchining to'lov amaliyotlari to'g'risidagi ba'zi ma'lumotlarga kirishni ta'minlashi mumkin. Agar bunday kirish foydalanuvchiga imtiyozlardan foydalanish uchun qo'shimcha shartlarni taqdim etish imkoniyati bilan bog'liq bo'lsa, bu hamkor bank tomonidan foydalanuvchiga chegirmalar (mukofotlar), foydalanuvchi tomonidan belgilangan muayyan shartlarni bajarishi munosabati bilan rag'batlantirish imkoniyatini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi;

v) Bank foydalanuvchining elektron pochta manziliga kirishni ta'minlashi mumkin, bu esa bank sherigiga fiskal yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa hujjatni o'tkazish imkonini beradi;

g) Foydalanuvchi Bankning hamkorlari tomonidan taqdim etilgan xizmatlardan foydalanganda, foydalanuvchi to'g'risidagi ma'lumotlar xizmatlarni to'g'ri ko'rsatish yoki ulardan foydalanishning qulaylik darajasini oshirish uchun zarur bo'lgan darajada va maqsadlarda bunday shaxslarga taqdim yetilishi mumkin. Masalan, Bank hamkorlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarda ro'yxatdan o'tish jarayonini tezlashtirishni ta'minlovchi ro'yxatdan o'tish shakllarini oldindan to'ldirish.

3.3.2.3. Ma'lumotlarni saqlash bo'yicha hamkorlar.

3.3.2.4. Bankning to'lov xizmatidan foydalangan holda qonun yoki ushbu Siyosat talabl

4. OMMAVIY AXBOROT

Bank xizmatlarida har qanday ijtimoiy tarmoq hamda kanalda forumlar yoki chatlar bo'lishi mumkin va ularda Mijozlar o'zaro fikr almashishi, bir-birlari bilan muloqot qilishlari mumkin. Foydalanuvchi shuni yodda tutishi kerakki, xabarni forumda yoki chat zonasida joylashtirganda, bunday ma'lumotlar Internetda ochiq bo'ladi va bunday joylashtirish foydalanuvchi tomonidan o'z tavakkalchiligi asosida amalga oshiriladi.

4.1. Nazorat qiluvchi o'zgarganda. Ma'lumotlar uzatish biznesni sotish yoki boshqa o'tkazish (to'liq yoki qisman) doirasida amalga oshiriladi, bunda ekvayer o'zi olgan shaxsiy ma'lumotlarga nisbatan ushbu siyosat shartlariga rioya qilish bo'yicha barcha majburiyatlarni oladi;

4.2. Ma'lumotlar taqdim etish O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

4.3. Bank yoki uchinchi shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish imkoniyatini ta'minlash uchun, agar Bank foydalanuvchining amaldagi Siyosati va Bank shartlarini yoki amaldagi qonunchilik talablarini buzgan deb hisoblash uchun yetarli asoslarga ega bo'lgan hollarda.

4.4. Foydalanuvchi Bank yoki uning filiallari xizmatlaridan foydalanganda foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlari ushbu Siyosatda ko'rsatilgan shartlar va maqsadlarda qayta ishlash uchun Bank yoki uning filiallariga o'tkazilishi mumkin. Ushbu bandga nisbatan foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlari, bank kartasidagi qoldiq to'g'risidagi ma'lumotlar va Bankning dasturiy ta'minoti ishtirokida amalga oshirilgan amaliyotlar to'g'risidagi ma'lumotlarni anglatadi.

4.5. Mijozlarga shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashda, Bank "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi boshqa normativ hujjatlarga amal qiladi.

4.6. Anonim ma'lumotlarni oshkor qilishda, Bank sheriklarga/ kontragentlarga anonim ma'lumotlarni (ya'ni, foydalanuvchining shaxsini to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita oshkor qilmaydigan ma'lumotlar), shuningdek, jamlangan ma'lumotlarni (mijozlar guruhlar va toifalari to'g'risidagi ma'lumotlarni) oshkor qilishi mumkin. Shuningdek, Bank foydalanuvchilarga xizmatlarning muayyan funksiyalaridan foydalanish imkoniyatini taqdim etish doirasida sheriklarga / kontragentlarga anonim va jamlangan ma'lumotlarni to'plashga ruxsat berishi mumkin, keyinchalik ushbu ma'lumotlarni Bankka o'tkazishi mumkin.

5. FOYDALANUVCHI TOMONIDAN SHAXSIY MA'LUMOTLARNI O'ZGARTIRISH YOKI YO'Q QILISH YOKI UNGA KIRISH HUQUQIGA EGA BO'LISH

5.1. Bank xizmatlari doirasida foydalanuvchiga o'zi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni yoki uning bir qismini o'zgartirish (yangilash, to'ldirish) yoki o'chirish funksiyasi taqdim yetiladi. Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga rozilikni qaytarib olish yozma ravishda amalga oshirilishi va Bankka elektron pochta orqali yuborilishi kerak.

5.1.1. Amaldagi qonunchilikda belgilangan darajada, Bank shaxsiy ma'lumotlar oshkor qilingan har bir oluvchini (agar buning iloji bo'lmasa yoki nomutanosib harakatlarni talab qilmasa) shaxsiy ma'lumotlarning o'zgartirilishi yoki yo'q qilinishi to'g'risida xabardor qiladi.

5.2. Qonun talablariga muvofiq, Bankdan foydalanuvchining Bank xizmatlaridan foydalanganda olingan shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlash/saqlash talab qilinishi mumkin. Bunday qayta ishlash/saqlash Bank tomonidan qonun hujjatlarida va ushbu Siyosatda belgilangan hollarda, asoslar va muddatlarda amalga oshiriladi.

6. KIRISH HUQUQI

6.1. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, foydalanuvchi Bank tomonidan olingan ma'lumotlarga quyidagi hollarda kirish huquqiga ega:

- a) qayta ishlash maqsadida;
- b) qayta ishlangan ma'lumotlar toifalari;
- v) foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlari uzatilganda qabul qiluvchilar toifasi;
- g) saqlash muddati yoki uni aniqlash mezonlari, shuningdek boshqa ma'lumotlar.

6.2. Agar Bankning to'lov xizmati interfeysida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, ma'lumot (nusxasi) Bankga yozma ravishda yoki boshqa aloqa vositalari orqali taqdim yetilishi mumkin.

6.3. Agar Bank ushbu Ciyosatning 4.3.1 - bandiga muvofiq so'rov yuborayotgan foydalanuvchining shaxsini aniqlashda shubha qilsa, bunday holatda Bank foydalanuvchining shaxsini tasdiqlash uchun zarur bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim etishni talab qilishga haqli.

6.4. Axborot so'rovini ko'rib chiqish Bankka kelib tushgan kundan boshlab bir oy (30 kun) ichida amalga oshiriladi. Bank so'rovlarning murakkabligi va sonini inobatga olgan holda belgilangan muddatni ikki oyga (60 kunga) uzaytirish huquqiga ega. Bank bunday uzaytirish to'g'risida foydalanuvchini o'zi uchun qulay bo'lgan usulda, sababini ko'rsatgan holda xabardor qiladi.

6.5. Agar so'rovda aniq asos bo'lmasa, shuningdek, so'rovlar soni haddan tashqari ko'p bo'lsa, Bank so'rovni bajarish uchun tegishli haq (shu jumladan ma'muriy xarajatlar) undirishga yoki uni bajarishni rad etishga haqli.

6.6. Foydalanuvchi ushbu bo'limda nazarda tutilgan tartibda Bankdan olingan ma'lumotlarni mustaqil ravishda boshqa nazoratchiga o'tkazish huquqiga ega.

7. E'TIROZ BILDIRISH HUQUQI

7.1. Amaldagi qonunchilikda ruxsat etilgan darajada, foydalanuvchi o'z shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga bergan har qanday roziligini bekor

7.2. Амалдаги қонунчиликка мувофиқ, фойдаланувчи назорат органига шикоят қилиш ҳуқуқига эга.

8. MIJOZLARNING SHAXSIY MA'LUMOTLARINI HIMOYA QILISH BO'YICHA KO'RILADIGAN CHORALAR

8.1. Bank foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlarini ruxsatsiz yoki tasodifiy kirish, yo'q qilish, o'zgartirish, bloklash, nusxalash, tarqatish, shuningdek, uchinchi shaxslarning u bilan bo'lgan boshqa noqonuniy harakatlaridan himoya qilish uchun zarur va yetarli tashkiliy-texnik choralarni ko'radi.

8.2. Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish, qayta ishlashda va xavfsizligini ta'minlashda, Bank "Shaxsiga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (02.07.2019 sanadagi №547-sonli Qonuni) va boshqa normativ hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi.

8.3. Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashda Bank ularning xavfsizligini ta'minlaydi va shaxsiy ma'lumotlarni ularga ruxsatsiz yoki tasodifiy kirishdan, shaxsiy ma'lumotlarni yo'q qilish, o'zgartirish,

bloklash, nusxalash, tarqatish, shuningdek, boshqa noqonuniy harakatlardan himoya qilish uchun zarur tashkiliy va texnik choralarni ko'radi. Bunday ma'lumotlarga nisbatan maxfiylik rejimini belgilash va unga rioya yetilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, standartlar va Bankning ichki tashkiliy-ma'muriy hujjatlari talablarini amalga oshiradigan qo'shimcha himoya choralari joriy yetadi.

9. MAXFIYLIK SIYOSATINI O'ZGARTIRISH

9.1. Bank foydalanuvchiga shartnomani yangi tahrirda nashr etish orqali ushbu Siyosatni o'zgartirish yoki to'ldirishni taklif qilish huquqiga ega. Foydalanuvchi tomonidan bunday taklifni qabul qilish Bankning istalgan xizmatlaridan yangi shartlarda foydalanish bo'yicha roziligini anglatadi.

9.2. Ushbu siyosat, foydalanuvchi hamda Bank o'rtasidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi normativ hujjatlarga bo'ysunadi.

10. SHAXSIY MA'LUMOTLARNI QAYTA ISHLASH BO'YICHA FOYDALANUVCHILAR BILAN O'ZARO MUNOSABATLAR

10.1. Ushbu shartnoma bo'yicha savollar yoki mulohazalarni info@openbank.uz elektron pochta manziliga yuborishingiz mumkin.

10.2. Bank ushbu siyosat qoidalariga taalluqli bo'lmagan savollarga javob bermaslik huquqiga ega, bu esa foydalanuvchini bankka manzillar bo'yicha bunday savollarni yuborish imkoniyatidan mahrum qilmaydi.